



TOSHKENT VILOYATIDAGI DONLI O'SIMLIKLARNING BIOKIMYOVIY TARKIBI.

Mahmudov Husniddin Sayfiddin O'g'li.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
biofizika va biokimyo yo'nalishi
2 kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575468>

Annotatsiya: Toshkent viloyati bo'yicha jamg'arilgan boshqoli don urug'liklari don korxonalari tasarrufidagi 7 ta urug'lik don tayyorlash sexlari tomonidan tozalanib, saralanib, dorilanadi va qadoqlanadi. 2022- yilning yanvar - dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 16.177.7 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 104.7%ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49.4%ni tashkil qildi. Ushbu tezisdan, Toshkent viloyatidagi donli o'simliklarning biokimyoviy tarkibi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Toshkent viloyati, qishloq xo'jaligi, g'allachilik, donli ekinlar, kimyoviy tarkibi, ishlab chiqarish ko'rsatkichi.

Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligi umumiy ekin maydoni 292,667 ga. Toshkent viloyatida 34 ta agroklaster ishlaydi. Shundan, 5 ta g'allachilik (ishlab chiqarish hajmi – 21,706 tonna) yo'nalishida. 2022-yilning yanvar - dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 618,2 ming tonna don va dukkakli don (2021-yilning yanvar - dekabriga nisbatan 8.0% ga ko'p) ishlab chiqarildi. Toshkent viloyatida don va dukkakli don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50.1% fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Ekin turi, navi, agrotexnika, o'sish sharoitiga bog'liq holda donning kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Oqsil bug'doy va ayniqsa, qattiq bug'doy donida ko'p, sholida nisbatan kam. Ekinzorlar shimoldan janubga, g'arbdan sharqqa tomon siljib borgan sayin don tarkibidagi oqsil miqdori ko'payadi.

O'zbekistonda, ayniqsa, Toshkent viloyatida lalmikor yerlarda yetishtirilgan don tarkibida oqsil ko'p. Oqsil miqdori tuproqdagi azot miqdori va nam bilan ta'minlanganlikka bog'liq. Azot oqsilni ko'paytirsan, ortiqcha namlik uni kamayishiga olib keladi. Bahori bug'doy donida oqsil kuzgi bug'doynikiga nisbatan ko'p. Oqsillar oddiy (protein) va murakkab (proteid)larga bo'linadi. Oddiy oqsillar albuminlar (suvda eriydigan), globulinlar (kuchsiz neytral tuz eritmalarida eriydigan), gliadinlar (70—80 % spirtida eriydigan), glyuteninlar (kislota va ishqorning kuchsiz eritmalarida eriydigan)larga bo'linadi. Gliadin va



glyutenin oqsillari alohida qimmatga ega bo'lib, ulardan eng yaxshi non yopish sifatlariga ega bo'ladi.

Oqsillar tarkibida lizin, triptofan, valin, metionin va boshqa almashtirilmaydigan aminokislotalar ko'p bo'lganda donning oziq-ovqat hamda oziqaviy qimmati ortadi. Suvda erimaydigan oqsillar kleykovina deyiladi. Kleykovina xamirdan kraxmal va boshqa birikmalami yuvishdan keyin qolgan oqsil moddasidir. Unning non yopish va mazali sifatlari kleykovinaning miqdoriga va sifatiga bog'liq. Bug'doyda xom kleykovinaning miqdori 16 dan 50 % gacha, javdarda 3,1 dan 9,5 % gacha, arpada 2 dan 19% gacha bo'ladi. Donning to'lishi issiq va quruq ob-havo sharoitida o'tsa, kleykovinaning miqdori oshadi. Donlar zararli xasva bilan zararlansa, o'simlik zamburug' bilan kasallansa kleykovina sifati pasayadi. U navga, shuningdek, qo'llanilgan agrotexnikaga ham bog'liq. Kleykovina tufayli bug'doy noni g'ovak bo'ladi, tez hazmlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Bug'doy eng muhim oziq-ovqat ekinidir. Bug'doyning bu qiymati uning yuqori hosildorligi, yuqori endosperm miqdori (don og'irligining 80-84%) bilan izohlanadi, bu uni qayta ishlash jarayonida nav navidan yuqori hosil olish imkonini beradi. Bug'doyning oqsil, uglevod va fermentativ kompleksining xususiyatlari ham qimmatlidir. Bug'doy, gliadin va kleykovina oqsil umumiy miqdorining 80% tashkil etadi. Ushbu oqsillar bug'doy tarkibida 1,1: 1-1,5: 1 nisbatda bo'ladi. Shishib, ular quruq vazniga qarab 200-300% suvni o'zlashtiradi va elastik massa - kleykovina hosil qiladi. Bug'doy kraxmal yaxshi shishadi va jelatinizatsiya paytida yopishqoq, nisbatan barqaror pastani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Abdullaev va boshqalar. O'simliklar bioximiyasidan amaliy mashg'ulotlar. "O'qituvchi", 2019yil.
2. Mahmudov H.S, "Toshkent viloyatidagi donli o'simliklarning biokimyoviy tarkibi", 2023.
3. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/9237/6752>
4. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2005 y.
5. R.F.Sultonov, N.M.Xolmuhamedova. Bioximiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent.2015.